


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2025- yil 1-sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni.

2025- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 30 201 tani tashkil etadi, shundan 24 822 tasi yoki 82,2 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,0 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 99,9 foizni tashkil etdi.



Soni



O'sish sur'ati

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	30 201	25 003	24 822
2024	29 913	25 009	24 855
2023	33 952	29 091	28 929
2022	40 219	35 327	35 111
2021	36 400	31 610	31 420

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Qarshi shahri – 19,9 foiz, Qarshi – 7,4 foiz, Yakkabog' – 7,0 foiz, Kitob – 6,9 foiz va Koson – 6,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Shahrisabz shahri – 85,8 foiz va 85,3 foiz, Qarshi – 85,3 va 84,7 foiz, Qarshi shahri – 85,1 foiz va 83,8 foiz hamda Nishon – 83,7 foiz va 83,5 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
G'uzor	1 500	1 220	1 208
Dehqonobod	1 231	956	951
Qamashi	1 883	1 565	1 561
Qarshi	2 241	1 911	1 898
Koson	2 057	1 682	1 668
Kitob	2 090	1 709	1 702
Mirishkor	1 095	881	879
Muborak	992	821	807
Nishon	1 451	1 215	1 211
Kasbi	1 340	1 108	1 104
Ko'kdala	1 282	1 042	1 040
Chiroqchi	1 621	1 289	1 284
Shahrisabz	1 596	1 273	1 268
Yakkabog'	2 106	1 754	1 748
Qarshi shahri	6 023	5 125	5 049
Shahrisabz shahri	1 693	1 452	1 444

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1-sentabr holatiga 31,5 foizni (38,1 foiz va 38,1 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 14,9 % (17,9 % va 18,0 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 10,0 % (12,0 % va 11,9 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 514	4 482	4 475
Sanoat	3 008	3 001	2 957
Qurilish	2 032	2 010	1 982
Savdo	9 519	9 515	9 480
Tashish va saqlash	793	787	778
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 651	1 641	1 635
Axborot va aloqa	401	393	393
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 033	676	671
Boshqa turlar	7 250	2 498	2 451

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar.

2025- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 25 003 ta faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalaridan 15 614 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	15 614	62,4
Xususiy korxonalar	5 996	24,0
Oilaviy korxonalar	3 045	12,2
Aksiyadorlik jamiyati	28	0,1
Boshqalar	320	1,3

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 159 ta korxonalardan 79 tasi qo'shma korxonalar va 80 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1-sentabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 159 ta bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p faol korxonalar, sanoat sohasida 63 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 36 tani va savdo sohasida 33 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	159	79	80
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36	11	25
Sanoat	63	28	35
Qurilish	8	6	2
Savdo	33	20	13
Tashish va saqlash	2	1	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	4	-
Axborot va aloqa	-	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	3	-
Boshqa turlar	10	6	4

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 41 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatimizdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,8 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,5 %), Turkiya (12,6 %), Afg'oniston (7,2 %) va Janubiy Koreya (5,0 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	159	79	80
Xitoy	41	15	26
Rossiya	23	14	9
Turkiya	20	8	12
Afg'oniston	12	3	9
Janubiy Koreya	8	5	3
Qozog'iston	5	4	1
AQSH	5	2	3
Eron	5	4	1
BAA	4	3	1
Niderlandiya	4	-	4
Hindiston	4	3	1
SHveysariya	3	3	-
Buyuk Britaniya	3	2	1
Pokiston	3	-	3
Germaniya	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston	2	1	1
Turkmaniston	2	2	-
Boshqa Davlatlar	10	7	3

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar.

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1-sentabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

X. Pardayev
75 221-17-93 (7060)

Maznil:

180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
